
VENGRIYA VA RISHTON HAMKORLIGI UCHUN DASTLABKI QADAMLAR QO'YILDI

Hamkorlik ufoqlari

Shu kunlarda Farg'ona viloyatida bo'lib turgan Vengriyaning Yas-Nad'kun-Sol'nok viloyati prezidenti Imre Xubay, ijrochi hokimi Attilo Berko boshchiligidagi delegatsiya bugun Rishton tumaniga tashrif buyurdi. Viloyat hokimining tegishli o'rinbosarlari va tuman hokimi xamrohligida mehmonlar "Mingboshi keramik" kulolchilik muzeyida bo'lishdi. Vengriyaliklar kulolchilik mahsulotlari bilan tanishishdan tashqari, tayyorlash jarayonlarini ham maroq bilan tomosha qilishdi. Muzeyda murakkab hamda nafis naqshlar, o'ziga xos uslubda yaratilgan, tabiat manzaralari tushirilgan turli ko'rinishdagi serjilo idishlar va kulolchilik buyumlari joylashgan.

Ushbu tashrif xorijlik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Ular rishtonlik usta kulollar tomonidan yaratilgan bir-biridan go'zal san'at asarlarini katta qiziqish bilan tomosha qilishar ekan o'zlarining hayratlarni yashira olishmadi.

Tashrif davomida "Chinor plyus" majmuasi bilan ham tanishildi.

Yas-Nad'kun-Sol'nok viloyati prezidenti Imre Xubay mamlakatlarimiz rahbarlari o'rtasida tashkil etilayotgan oliy darajadagi uchrashuvlar keng ko'lamli hamkorlik qamrovini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotganini ta'kidlab, Rishton tumani bilan turli sohalarda hamkorlik qilishga tayyorligini bildirdi va keyingi yili Vengriyada o'tkaziladigan forumga taklif etishini aytib o'tdi.

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati.

2024-10-19 08:34:03